

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

FAVQULODDA VAZIYATLAR SOHASIDA DUAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH: MOSKVA MUHANDISLIK-FIZIKA INSTITUTI MILLIY TADQIQOT YADRO UNIVERSITETINING TOSHKENT FILIALI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI HAMKORLIGI TAJRIBASI

Dadaxon Komiljoinovich Nasriddinov
O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi hamda Moskva muhandislik-fizika instituti Milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent filiali o'rtasida tuzilgan hamkorlik memorandumini asosida dual ta'lim tizimini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Hamkorlik doirasida o'quv dasturlarini takomillashtirish, zamonaviy laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlar, grant loyihalari hamda xalqaro ilmiy nashrlarda qo'shma maqolalar tayyorlash masalalari yoritilgan. Mazkur hamkorlik modeli radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza hamda inson va atrof-muhitning radiatsion xavfsizligi yo'nalishlari bo'yicha xalqaro standartlarga mos mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, radiatsion xavfsizlik, MEPhI, FVV Akademiyasi, yadro texnologiyalari, laboratoriya mashg'ulotlari, innovatsion ta'lim, xalqaro hamkorlik.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirgan, amaliy tajribaga ega va xalqaro standartlar asosida tayyorlangan mutaxassislarni yetishtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, radiatsion xavfsizlik, yadro energetikasi hamda favqulodda vaziyatlar sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarni tayyorlashda nazariy bilimlarning amaliy ko'nikmalar bilan uzviy bog'lanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi hamda Moskva muhandislik-fizika instituti Milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent filiali o'rtasida tuzilgan hamkorlik memorandumini oliy ta'lim, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni integratsiyalashga qaratilgan muhim huquqiy

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING QATAR

asos hisoblanadi. Memorandumning asosiy maqsadi ilm-fan, innovatsion faoliyat va ta'limni integratsiyalash, shuningdek, "Inson va atrof-muhitning radiatsion xavfsizligi" mutaxassisligi hamda "Radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza" yo'nalishi bo'yicha dual ta'limni samarali tashkil etishdan iborat.

Memorandumda dual ta'limni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari aniq belgilangan. Unga ko'ra, nazariy mashg'ulotlar FVV Akademiyasida, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari esa Moskva muhandislik-fizika instituti Milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent filiali bazasida zamonaviy laboratoriyalar hamda simulyatsion markazlardan foydalangan holda tashkil etilishi nazarda tutilgan.

Mazkur yondashuv nazariy bilimlarning amaliy ko'nikmalar bilan integratsiyasi, zamonaviy laboratoriya uskunalaridan samarali foydalanish, xalqaro standartlarga mos kompetensiyalarni shakllantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash kabi afzalliklarni ta'minlaydi.

Hamkorlikning eng muhim yo'nalishlaridan biri o'quv rejalari va fan dasturlarini xalqaro tajribalar asosida yangilash hisoblanadi.

Chora-tadbirlar rejasiga muvofiq "Inson va atrof-muhitning radiatsion xavfsizligi" magistratura mutaxassisligi hamda "Radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik muhofaza" yo'nalishi bo'yicha yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy etish ko'zda tutilgan.

Bunday yondashuv xalqaro akkreditatsiya talablariga mos o'quv dasturlarini yaratishga, kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishga, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Radiatsion xavfsizlik va yadro texnologiyalari yo'nalishida amaliy tayyorgarlik alohida ahamiyatga ega.

Shu sababli memorandumda Moskva muhandislik-fizika instituti Milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent filiali laboratoriyalari, simulyatsion xonalari hamda zamonaviy ilmiy uskunalaridan foydalanish nazarda tutilgan.

Laboratoriya mashg'ulotlari radiatsion monitoring, dozimetriya, radioekologik tadqiqotlar, yadro fizikasi laboratoriyalari, radiatsion avariylarni modellashtirish, radiatsion himoya vositalarini sinovdan o'tkazish, simulyatsion trenajyorlarda favqulodda vaziyatlarni boshqarish kabi yo'nalishlarda tashkil etilishi mumkin:

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

Bunday mashg'ulotlar nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga amaliy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Memorandum ilmiy faoliyatni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratadi.

Xususan, professor-o'qituvchilar stajirovkalari, magistrantlar va kursantlar almashinuvi, xalqaro konferensiyalar, seminar va treninglar, grant loyihalari, ilmiy laboratoriyalardan birgalikda foydalanish, Scopus, Web of Science va OAK jurnallarida qo'shma maqolalar tayyorlash kabi yo'nalishlar belgilangan.

Bu esa ilmiy salohiyatni oshirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi.

Mazkur hamkorlik asosida xalqaro standartlarga mos radiatsion xavfsizlik mutaxassislarini tayyorlash, dual ta'limning zamonaviy modelini joriy etish, zamonaviy laboratoriya bazasidan samarali foydalanish, professor-o'qituvchilarning ilmiy va pedagogik salohiyatini oshirish, qo'shma grant loyihalari sonini ko'paytirish, Scopus va Web of Science bazalarida indekslanuvchi maqolalar ulushini oshirish favqulodda vaziyatlar sohasida ilmiy innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish singari natijalarga erishish mumkin.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi hamda Moskva muhandislik-fizika instituti Milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent filiali o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumi oliy ta'lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik hujjat hisoblanadi. Unda nazarda tutilgan dual ta'lim modeli, zamonaviy laboratoriya mashg'ulotlari, ilmiy tadqiqotlar, akademik almashinuv va qo'shma innovatsion loyihalar radiatsion, kimyoviy hamda tibbiy-biologik muhofaza yo'nalishida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning sifat jihatdan yangi bosqichini boshlab beradi.

Kelgusida ushbu hamkorlik doirasida xalqaro grantlar, qo'shma ilmiy markazlar, raqamli laboratoriyalar va sun'iy intellektga asoslangan simulyatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish O'zbekistonning favqulodda vaziyatlar va radiatsion xavfsizlik tizimi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga sezilarli hissa qo'shadi.

CONFERENCE ON FRONTIERS OF SCIENCE AND ENGINEERING • QATAR •

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-apreldagi PQ-123-son "Favqulodda vaziyatlar sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-dekabrdagi O'RQ-737-son "Favqulodda vaziyatlar to'g'risida"gi Qonuni.
4. Moskva muhandislik-fizika instituti Milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent filiali va O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi Memorandum. – Toshkent, 2026.